



## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INDIVIDUALS WITH ALBINISM DISEASE

**Azizova Fotima Nig'matjonovna**

Independent Researcher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331660>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025

Online: 30<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Adaptation, rehabilitation, remission, self-assessment, self-management, coping-strategies, flexibility, correction, determinants.*

### ABSTRACT

*This article is a study of the specific psychological aspects of albiniz individuals, identifying the main socio-psychological and psychological determinants that determine their differences from individuals who have a defect in their eyes and the Prevention of stress States so that they can adapt in society, their social adaptation.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛИЦ СТРАДАЮЩИХ АЛЬБИНИЗМОМ

**Азизова Фотима Нигматжоновна**

Независимый исследователь

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331660>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025

Online: 30<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

*Адаптация, реабилитация, ремиссия, самооценка, самоконтроль, копинг-стратегии, гибкость, коррекция, установка, детерминанты.*

### ABSTRACT

*В данной статье альбинизируются основные социально-психологические и психологические детерминанты, определяющие социальную адаптацию, изучение конкретных психологических аспектов личности, их отличия от лиц с дефектами зрения и предотвращение стрессовых ситуаций для их адаптации в обществе.*

## ALBINIZM KASALLIGI BILAN XASTALANGAN SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Azizova Fotima Nig'matjonovna**

Mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15331660>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025

Online: 30<sup>th</sup> April 2025

### KEYWORDS

### ABSTRACT

*Mazkur maqola albiniz shaxslarning o'ziga xos psixologik tomonlarini o'rganish, ko'zida nuqsoni bor shaxslardan ularning farqli tomonlari va ular jamiyatda moslashishlari*



*Moslashuv, reabilitatsiya, remissiya, o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi boshqarish, koping-strategiyalar, egiluvchanlik, korrektsiya, ustanovka, determinantlar.*

*uchun stress holatlarni oldini olish, ijtimoiy moslashuvini belgilab beruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik va psixologik determinantlari aniqlash.*

Albinizmga chalingan insonlarning barchasi yuridik jihatdan ko'zi ojiz hisoblanishiga qaramasdan va ularning salomatliklari bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud. Albinizmning 17 000 kishidan 1 kishida mavjud va ko'z, sochlar va terini qamrab oladi. Albinizm - bu pigment (melanin) tizimini nasliy kasalligining geterogen guruhidir, u teri va uning pridatkasi pigmentining, ko'zlarning ko'z pardasi va pigment qavatining irsiy yo'qligi. Kasallikning asosida melanositlar melanin hosil qila olmasligi yotadi, bu tironinazm faollashganligi bilan asoslanadi. Tirozinolazm hosil bo'lishi uchun javobgan genlarning turli xil buzilishlari natijasida paydo bo'ladi. Bolaga albinizm o'tishi uchun gen tashuvchi otanonaning har ikkalasida bo'lishi kerak. Ushbu gen etnik mansublikdan qat'iy nazar, dunyoning barcha davlatlarida har ikki jins vakilida uchraydi. Melanin melanositlar xujayra orgonlarda melanosomalarda hosil bo'ladi. Melanositlar terida, soch folikulalarida va ko'zning pigmentlashgan terisida hosil bo'ladi. Ayrim hollarda albinizm sababli quyosh nuri va yorug'likka nisbatan o'ta sezgirlikni oshishi hisobiga teri saratoni rivojlanishi hafi yuqori bo'ladi. Gap shundaki, albinizm avloddan avlodga nafaqat ustun gen sifatida, balki resessiv gen sifatida o'tadi, ya'ni har qanday holatda ham u namoyon bo'lishi mumkin. Albinizmga bo'lgan munosabat ko'pincha, jismoniy ko'rinishning atrofdagilar munosabatining shakllanishidagi tutgan o'zni tufayli, boshqa ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan jismoniy kamchiliklar ega bo'lgan munosabatlarga o'xshash bo'ladi. Ijtimoiy moslashuvni qiyinlashtiradi.

2013 yil BMT Bosh assambleyasida rezolyatsiya qabul qilindi. Unda albinizmga chalingan bolalar va shaxslarga tajovuz qilish va ularni kamstish qoralangan, 2014 yil 18-dekabrda rezolyutsiyasi asosida esa 13 iyun Albinizm haqida xabardorlikni oshirish xalqaro kuni sifatida e'lon qilindi. Hozirda BMTga azo mamlakatlarda mana shu kun Albinozlarni himoya qilish kuni.

O'zbekistonda nogironligi bor insonlar soni 850 ming nafar (2023 yil). Ularning orasida, statistikaga ko'ra ko'rish qobiliyati bo'yicha nogironligi bor bolalar 9700 nafarni tashkil qiladi. Ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past bolalar uchun 14 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internet mavjud.

Albinizm kasaligi bilan xastalangan bolalarga jamiyatda o'z o'rinlarini topishda va moslashishida tadqiqotlar muhim ro'l o'ynaydi. Hozirda ilmiy asoslangan anomal (nuqsonli) bolalarni o'qitish va tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim maktabdagi vazifalardek qaralib, nuqsonli bolalarning rivojlanishiga, turmush tarziga, ta'lim-tarbiyasiga sharoitlar yaratilib, ular bilan korrektsiya ishlari muntazam amalga oshirilmoqda. Ko'rishida nuqsonli bo'lgan bolalarni psixologik tekshirish bolaning meyorida rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan xolda tiflopsixologlar tomonida ishlab chiqilgan nazariya asosida olib boriladi. Bularga



quyidagilar kiradi: psixik rivojlanish jarayonlarining senzitiv davrini mavjudligi; psixik jarayonlarning rivojlanishini ketma-ketligi, psixik rivojlanishda faoliyatining roli, nutqning-oliy psixik jarayonlarni shakllanishidagi roli; psixik rivojlanishda ta'limning yetakchi roli (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy). [1] 114-115]. L.S.Vigotskiy turli nuqsonlarga bolalarni psixik rivojlanishini qonuniyatlarini o'rganish jarayonida turli nuqsonlarda namoyon bo'ladigan umumiy o'ziga xos qonuniyatlari ajratgan. U anomalni yuzaga keltiruvchi sabablar birlamchi nuqson sifatida keluvchi psixik faoliyatni asosiy nuqsonlarini yuzaga keltiradi, natijada bu bolani psixik rivojlanishini o'ziga xos o'zgartirib, psixik faoliyat ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarini yuzaga keltiradi. Umumiy qonuniyatlar rivojlanishida nuqson bo'lgan anomal toifadagi barcha bolalarga tegishli. Vigotskiy ko'rsatishicha, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarning bo'lishi bolalarni tashqi olamdan oluvchi ma'lumotlarni chegaralab qo'yadi. Rivojlanish jarayonidagi ko'rishdagi chuqur nuqsonlar bilish faoliyatining barcha turlariga ta'sir etadi hamda bolani shaxsiy va emotsional-irodaviy doirasini shakllanishida kuzatadi. ). Ko'rishni keskin buzilishi olinayotgan ma'lumotni umumiy xajmini pasaytiradi hamda sifatini o'zgartiradi. Ko'rish hislarining qisman kamayishi yoki to'liq bo'lmasligi idrok, xotira, shuningdek psixologik tuzim, uning strukturasi, ichki funktsiya tizimlarining o'zaro bog'liq tomonlarini, tasavur obrazlarining shakllanishini hissiy bilish jarayonlarini chegaralab qo'yadi. Tug'ma kasalliklar hamda ko'ruv organining rivojlanish anomaliasi tashqi va ichki jarohat ta'sir omillari natijasi bo'lishi mumkin. Taxminan ulardan 30% nasliy shaklda (tapetoretinal degeneratsiya, miopiya, tug'ma glaukoma, ko'ruv nervi atrofiyasi, retrolentalnaya fibroplaziya). L.L.Kirillovning tadqiqotlarida ko'rsatishicha, albinizm turidagi moddalar almashinuvi tug'ma nuqsonlarida kuzatiladi. Tafakkurning rivojlanishida ko'rishda nuqsonlari bo'lgan bolalar meyorida rivojlanayotgan tengdoshlaridan xattoki 4-8 yosh orqada qolishi ham kuzatilgan. Biroq, 1977 yildayoq D.Uorren rivojlanishdan orqada qolishni faqatgina eksperimental tadqiqot testlari orqali tekshirilgan, bunda vazifani tushunish va idrok etishiga sharoit yaratmagan holda olib borilgani, ko'rishda nuqson bo'lgan bolalarni o'ziga xos tomonlarini hisobga olinmaganini ko'rsatib berdi. Testlar ko'pincha Brayl tizimiga o'tkazilgan. ). [2] 217].

Albinizmga bo'lgan munosabat ko'pincha, jismoniy ko'rinishning atrofdagilar munosabatining shakllanishidagi tutgan o'rni tufayli, boshqa ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan jismoniy kamchiliklar tufayli sodir bo'ladigan munosabatlarga o'xshash bo'ladi. ). [1] 117]. Mangani, Kromberg Djenkinslar (1974) o'z tadqiqotlarida, albinizmga chalingan 40 kishidan iborat ishtirokchilar nazorat guruhidagi ishtirokchilarga nisbatan yuqoriroq intellektual etuklikni namoyon qilganliklarini xabar qilganlar. Va nihoyat, avvalgi natijalarga ko'ra Koul, Konn, Djons, Uolles va Murlarning (1987) xabar berishicha, albinizmga chalingan 12 yoshli bolaning intellekti ko'rish qobiliyati albinizm bilan bog'liq bo'lmagan 12 yoshli bolaning intellektidan deyarli farq qilmaydi. [3]. Albinizmga chalingan odamlarning aqliy rivojlanishiga bag'ishlangan ilk tadqiqotlarda albinizm holati mavjudligiga asoslangan intellektual cheklavlar tadqiq qilingan. Segers (1929) bitta ishtirokchi bilan o'tkazilgan tadqiqotida albinizm bilan tug'ilgan bolada aqliy zaiflikka mos bo'lgan intellektual qoloqlik kuzatilishi haqida yozib o'tgan. Taxmin qilinayotgan cheklanganlikning ushbu turi ko'pincha nogironlik bilan bog'liq. [1] 119. Nisbatan kechroq Bekxem (1946) Stenford-Bine tadqiqotlaridan foydalangan holda, albinizmga chalingan ishtirokchilarning intellektual



rivojlanishi 10 yoshgacha bo'lgan davrda kuzatilganda, xuddi ularning aka-ukalari va opa-singillaridagi kabi ekanligini ko'rsatib bergan. Styuart va Kilerlar (1965) Panamada yashagan kun hindulari orasidan tanlab olingan namunalarni o'rganganlar. Ular albinizmga chalingan ishtirokchilarning intellekti hamda ularning kasallanmagan tengdoshlari intellekti o'rtasidagi farq u qadar katta bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bu kabi natijalar Fulcher va uning hammualliflari (1995) tomonidan AQSHda albinizmga chalingan bolalar misolida ham keltirilgan. Mangani, Kromberg va Jenkinslar (1974) o'z tadqiqotlarida, albinizmga chalingan 40 kishidan iborat ishtirokchilar nazorat guruhidagi ishtirokchilarga nisbatan yuqoriroq intellektual yetuklikni namoyon qilganliklarini xabar qilganlar. Va nihoyat, avvalgi natijalarga ko'ra Koul, Konn, Jons, Uolles va Murlarning (1987) xabar berishicha, albinizmga chalingan 12 yoshli bolaning intellekti ko'rish qobiliyati albinizm bilan bog'liq bo'lmagan 12 yoshli bolaning intellektidan deyarli farq qilmaydi. Ko'pchiligida nazorat guruhlari ham ishtirok etgan mazkur tadqiqotlar o'zaro mujassamlantirilganda, albinizmga chalingan odamlar sog'lom tengdoshlaridagi kabi intellektual yutuqlar va qobiliyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

*Albinizmga chalingan shaxs va uning muammolarni yengib o'tish mexanizmlari.* Albinizmga chalingan shaxsni va uning o'z holati bilan bog'liq muammolarni yengib o'tish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, ularning intellektual rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar kabi ko'p sonli emas. Aniqlangan ilk tadqiqotlar Styuart va Kilerlar tomonidan amalga oshirilgan (1965), ular o'z navbatida albinizmga chalingan kishilar "qarama-qarshi jinsga qiziqishi unchalik yuqori bo'lmagan", "ayollarga xos xususiyatlarga moyilroq bo'lgan passivlikni" namoyon qiladi, deya ta'rif berganlar. Bundan tashqari, albinizmga chalingan odamlar "hissiy beqaror va intellektuallashtirish hamda dindan" tirik qolish mexanizmlari sifatida foydalanuvchi odamlar sifatida ta'riflaganlar. Ushbu tadqiqotning eng muhim xulosalaridan biri hindular qabilasidan biri bo'lgan kuna qabilasidagi albinizmga chalingan shaxslarning rivojlanishida mazkur qabila madaniyati muhim o'rin tutishi bilan bog'liqligidir.[5] Styuart va Kilerlar o'zlarining albinizmga chalingan a'zolariga qabilalarini g'ayritabiiy hodisalardan himoya qiluvchi va ma'naviy yo'l boshchilikni ta'minlovchi ma'naviy kuch egalari sifatida e'tirof etganliklarini alohida ta'kidlab o'tganlar. Ezeyloning (1989) fikriga ko'ra, tadqiqot ishtirokchilarining shaxsga oid xususiyatlari passivdan tajovuzkorlikka qadar o'zgarib borgan va ularning yashab qolishga harakat qilish mexanizmlari itellektuallashtirishdan g'azab va yig'iga qadar o'zgarib turgan. Bu albinizmga chalingan ko'plab odamlar uchun umumiy bo'lgan holatlarning to'liq spektri ekanligi tushunarli. U albinizmga chalingan kishilarga ular boshdan kechirayotgan ijtimoiy va psixologik noxush holatlarni yengib o'tish uchun maslahat yoki yordamchi xizmatlardan foydalanishni tavsiya qilgan. Vanning (2003) ta'kidlashicha, albinizmga chalingan kishilar ko'plab vaziyatlarda stigma va begonalashishni boshdan kechirganlar hamda ushbu odamlarning qo'llaydigan tirik qolishlari uchun huddi psoriasis kabi ko'zga tashlanadigan boshqa jismoniy nuqson bilan tug'ilgan kishilar tomonidan qo'llaniladigan yashab qolish mexanizmlariga o'xshab ketadi. Yengib o'tishning bu kabi mexanizmlari ko'plab ko'zga tashlanadigan nuqsonlarga ega bo'lgan kishilar uchun umumiy bo'lishi mumkin. Umuman olganda, kasalikka chalingan shaxs va bu kasallik bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni yengib o'tish mexanizmlarini albinizmga chalingan kishilarga nisbatan qo'llanilganda o'ta sinchkovlik va ehtiyotkorlikni talab etadi. Albinizmga chalingan kishilar odatda boshqa odamlar sifatida o'rganiladi, va odatda bu farqlar



odamlarning boshqalar tomonidan qabul qilinadigan ko'plab shaxsiy xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. (Rayt, 1964). [1]

*Albinizmga nisbatan shaxsiy harakatlar.* Men-konsepsiyasi va xavotirlikning individual moslashuvdagi o'rni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritib berilgan Tadqiqotchilar, albinizmga chalingan odamlar o'zlariga past baho beradilar va albinizmning ko'zga tashalanadigan jismoniy o'ziga xosliklari bilan bog'liq bo'lgan xavotirlikning yuqori darajasi to'g'risidagi faraz (gipoteza)larni ilgari surdilar. Biroq tadqiqotlar albinizmga chalingan va chalinmagan kishilarning o'zlariga baho berishlarini taqqoslashdagi gipotetik farqni to'liq tasdiqlamadi. Gavron va uning hammualliflari (1995) o'z tadqiqotlarida ishtirok etgan, albinizmga chalingan 43 nafar talabalar va tegishli nazorat guruhlari o'rtasidagi o'z-o'ziga baho berishda ahamiyatli farqlarni topmadilar. Biroq shunga qaramasdan, albinizmga chalingan shaxslardan iborat guruhda muayyan farqlar aniqlangan, ya'ni o'g'il bolalar nisbatan pastroq baho oladilar, qiz bolalar esa aksincha, ko'proq baland baholar bilan o'qiydilar. Tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra albinizmga chalingan o'g'il bolalar o'z salomatliklarini xavf ostiga qo'ygan holda, ijtimoiy jihatdan nisbatan salbiyroq bo'lgan yengib o'tish mexanzmlaridan, ya'ni quyosh ostida himoya vositalarisiz yurish yoki ko'rish faolligini talab etuvchi sport tadbirlarida ishtirok etish kabilardan foydalanishlari mumkin. Bu kabi holatlar muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi va o'g'il bolalarning g'ururiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari ular albinizmga chalingan o'g'il bolalar albinizmga chalingan qiz bolalarga nisbatan yuqoriroq xavotirlik darajasiga ega bo'lganlar. Albinizmga chalingan yosh qizlar esa aksincha, o'zlari faoliyat yuritishlari qiyin bo'lgan vaziyatlardan qochish va ehtiyotkorlik bilan ajralib turuvchi yengib o'tish mexanizmlaridan foydalanadilar. Moslashishning bu kabi uslublari qizlar o'g'il bolalardan farqli ravishda o'z holatlariga osonroq ko'nikadilar, bu esa o'z navbatida ular o'rtasidagi munosabatlarda muammolar tug'ilishiga va ularning atrofidagi do'stlar kabi omillarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.[4]. Bu kabi gender farqlar kasalga chalinmagan odamlar guruhida kuzatilmagan.

Gold (2002) albinizmga chalingan 10 nafar afroamerikalikning o'z-o'ziga baho berishlari jihatini o'rganib chiqqan. Natijalar ularning o'z-o'zlariga baho berishlari bilan nazorat guruhlariidagi shaxslarning o'z-o'ziga baho berishlaridan farq qilmagan. Garchi ushbu tadqiqotlarning natijalari ijobiy bo'lib ko'rinsa-da, bu kabi tadqiqotlarda oilaning yoki jamoaning qo'llab-quvvatlashi, ota-onalarning nazorati, turli xizmatlar mavjudligi, shuningdek, albinizmga chalingan odamlar o'zlarini qanday qabul qilishlari va albinizm haqidagi yashab qolish strategiyalariga asoslangan, turli Men-konsepsiyalarini aks ettirishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan umumiy bilimlar kabi boshqa tashqi omillar o'rganilmagan. Tadqiqotlarning bu kabi yo'nalishlari albinizmga chalingan kishilarning o'z-o'ziga baho berish va moslashish qobiliyatlarini oshirish muammolarini izohlash uchun fenomenologik ma'lumotlarni taqdim qilishi mumkin.

*Albinizmga bo'lgan munosabat.* Albinizmga bo'lgan munosabat albinizmga chalingan odamlarning ijtimoiy moslashuviga imkoniyat yaratuvchi omil sifatida o'rganilgan. Albinizmga bo'lgan munosabat ko'pincha, jismoniy ko'rinishning atrofdagilar munosabatining shakllanishidagi tutgan o'rni tufayli, boshqa ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan jismoniy kamchiliklar tufayli sodir bo'ladigan munosabatlarga o'xshash bo'ladi. [2] Albinizmga bo'lgan munosabatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar 1983 yilda, boshlang'ich maktabda



albinizmga bo'lgan munosabatni o'rgangan Vander Kolk va Braytlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlardan boshlangan. Mazkur tadqiqotlar natijasida davolanmagan uchta yoshga oid guruhlarda salbiy munosabatlar va albinizm haqidagi ma'lumotlarning mavjud emasligini aniqlandi. Masalan, ayrim ishtirokchilar albinizmga chalingan insonlar haqida gapirar ekanlar, quyidagi madaniy holatlarni bayon qildilar: "Albinizm – bu oq va qora tanlilarning bolasi borligi" yoki "Albinizmga chalingan kishi – bu oq negr" (Albinizmga bo'lgan munosabatning o'zgarishi 10-sinf o'quvchilari albinizmga chalingan kishi bilan muloqotda bo'lganlaridan so'ng sodir bo'ldi. Kromberg va uning hammualliflari (1987), albinizmga chalingan bolaning tug'ilishi oila tizimidagi buzilishlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi, ayniqsa qora tanlilar uyushmalarida, degan fikrlarni bayon qilganlar. Mazkur tadqiqotlar ishtirokchilari o'z farzandlarining tashqi ko'rinishidan va ushbu bolalarning ayrimlarining otalari o'z otaliklarini inkor qilishlari mumkinligidan xavotirda ekanliklarini bayon qildilar. Tadqiqotchilar shuningdek, bu kabi muammolar albinizmga chalingan bolalarning onalaridagi mehribonlik tuyg'ulariga ham qaysidir darajada to'sqinlik qilishi mumkinligini ham taxmin qilganlar. Xuddi shu kabi, Vander Kolk va Bright (1983), Lund (2001) va Westhoff (1993)lar ham ishtirokchilar o'rtasida albinizm holati bilan bog'liq bo'lgan salbiy munosabat, diskriminatsiya va bilimlarning mavjud emasligini ta'riflab berganlar. Ular tadqiqot ishtirokchilari, albinizmga chalingan odamlar aqliy zaif yoki ular ota-onalariga jazo sifatida yoki iblis aralashuvi tufayli bu dunyoga kelgan, degan g'oyani ilgari suruvchi prezumpsiyalar (ehtimollikka yoki taxminga asoslangan faraz) stereotiplari yoki afsonalarga asoslangan turli holatlarni bayon qilganliklarini ko'rsatib o'tganlar. Ushbu tadqiqotlarning barchasi birgalikda albinizmga chalingan kishilarga nisbatan salbiy va bilimsizlarcha munosabatlar mavjud ekanligini namoyon qiladi. Natijalar albinizm bilan bog'liq bo'lgan bilimlarning yetishmasligini alohida ta'kidlaganlar, bu esa o'z navbatida qabul qilish va achinishdan to qabul qilmaslikkacha bo'lgan munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.[5] Aniq ma'lumotlarning va albinizmga chalingan odamlar bilan ayrim shaxslararo aloqalarning taqdim qilinishi, aftidan, albinizmga chalingan odamlarga bo'lgan ijobiy qarashlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Biroq ushbu natija og'zaki xabarga asoslangan. Bugungi kunda bu kabi ma'lumotlar albinizmga chalingan odamlar va ularning tengdoshlari o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishini namoyon qiluvchi ma'lumotlar mavjud emas.

### References:

1. Форгел Ф, Матулски А Генетика чилавека: v 3 том: Масква-2000г.
2. EFFECTS OF STIGMATISATION ON PSYCHOSOCIAL AND HEALTH WELLBEING OF PEOPLE LIVING WITH ALBINISM IN SOUTH-WEST NIGER- OJEDOKUN, I. Mobolaji. 2017 yil
3. "Nurli maskan istiqbollari" jurnali. Ma'rifat 2023 yil 94 nashr.
4. Psychosocial Aspects of Physical Difference: The Experiences of Eight Adults with Albinism in Puerto Rico Noel Estrada-Hernandez 2018 yil.
5. Psycho-Social Dimensions of Stigmatisation of Albinos in Rivers State and the Challenges of Learning among Students with Albinism (Swa) Dr. Njoku JU\* , Amadi, Cajetan N. 2020 yil.